

Hujjat kuchini yo'qotgan 01.01.2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI YANADA TARTIBGA SOLISH VA AVTOTRANSPORT
VOSITALARINING ICHKI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNI RAG'BATLANTIRISHGA DOIR CHORA-
TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

▀ LexUZ sharhi

Mazkur qaror O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-sonli "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 2021-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi.

Avtomobilsozlik sanoatida raqobat sharoitlarini yaratish va qulay investitsiya muhitini shakllantirish sohasida ko'rileyotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida:

1. 2020-yil 1-avgustdan boshlab 8701, 8702, 8703 va 8704 TIF TN kodlar bo'yicha transport vositalarini olib kirishda amalda bo'lган aksiz solig'i stavkalari bekor qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-son qarorining 2-ilovasiga o'zgartirishlar ilovaga muvofiq kiritilsin.
3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommaviy axborot vositalarida mazkur qarorning mazmun-mohiyati, shu jumladan uning ichki bozorni sifatli tovarlar bilan yanada ta'minlash va aholi ehtiyojlarini qondirishdagi ta'siri keng yoritilishini ta'minlasin.
4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rindbosarlari J.A. Qo'chqorov va S.U. Umurzakov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi R.A. Gulyamov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 3-iyun,
PQ-4739-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2020-yil 3-iyundagi
PQ-4739-son qaroriga
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-son qarorining 2-ilovasiga kiritiladigan o'zgartirishlar

1. "8701 20 90" dan "8704 32 990 7" (ushbu pozitsiya ham kiradi) gacha tovar pozitsiyalari chiqarib tashlansin.
2. Izohlar chiqarib tashlansin.

Izoh: mazkur o'zgartirishlar 2020-yil 1-avgustdan kuchga kiradi.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2020-y., 07/20/4739/0710-son)